

# **BUXORO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT**

*2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1-noyabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bora-sida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlash-tirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha  
2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

4



## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar- oktabr oylarida)



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar- oktabr oylarida, birlikda)




# Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar


(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

6


Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni  
o'tgan yilning shu davriga nisbatan **11,0** foizga oshdi



■ Kichik tadbirdorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik,  
chorvachilik, ovchilik va bu  
sohalarda xizmat ko'rsatish  
■ O'rmon xo'jaligi  
■ Baliq xo'jaligi




# Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)


7



*Jami faoliyat  
ko'rsatayotgan sanoat  
korxonasi va  
tashkilotlarning  
umumiyligi o'tgan  
yilning shu davriga  
nisbatan **16,4** foizga  
oshdi*



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 4 938 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 116,4 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 116,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 94,9%), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 105,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,8 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 117,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,4 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 136,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,9 %) o'sishidir.

# Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,6** foizga oshdi



## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



## Mikrofirmalar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



## Oilaviy korxonalar



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




## Xususiy korxonalar




# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)


9



## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




## Mikrofirmalar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




## Oilaviy korxonalar



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



## Xususiy korxonalar



# Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

10

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

737



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

22



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

12



## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



381

yashash bo'yicha xizmatlar



2 075

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 2 456 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,9 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 113,9 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 84,5 %), yashash bo'yicha xizmatlarning- 102,1 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 15,5 %) o'sishidir.


## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Oilaviy korxonalar soni (1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra 3 557 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 642 taga yoki 122,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 273 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 562 taga yoki 120,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar - oktabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 801 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 220 taga yoki 21,5 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra 325 tani tashkil etib, ulardan 319 tasiyoki 98,2% faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 30 taga yoki 110,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar- oktabr oylarida viloyatimizda 42 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar- oktabr oylarida, birlikda)



# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2021-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

14



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	85	145	265	285	319
shu jumladan:					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1	7	20	22	29
Sanoat	58	78	113	122	127
Qurilish	4	8	27	28	32
Savdo	9	21	55	62	73
Tashish va saqlash	-	1	6	6	5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	13	20	21	23
Axborot va aloqa	1	-	1	1	1
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	2	4	6	7
Boshqa turlar	6	15	19	21	22

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)


15

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>319</b>	<b>191</b>	<b>128</b>
<b>Buxoro shahar</b>	<b>166</b>	<b>89</b>	<b>77</b>
<b>Kogon shahar</b>	<b>15</b>	<b>12</b>	<b>3</b>
<b>tumanlar:</b>			
<b>Olot</b>	<b>6</b>	<b>1</b>	<b>5</b>
<b>Buxoro</b>	<b>20</b>	<b>16</b>	<b>4</b>
<b>Vobkent</b>	<b>5</b>	<b>3</b>	<b>2</b>
<b>G'ijduvon</b>	<b>12</b>	<b>9</b>	<b>3</b>
<b>Kogon</b>	<b>24</b>	<b>18</b>	<b>6</b>
<b>Qorako'l</b>	<b>9</b>	<b>7</b>	<b>2</b>
<b>Qorovulbozor</b>	<b>11</b>	<b>5</b>	<b>6</b>
<b>Peshku</b>	<b>19</b>	<b>8</b>	<b>11</b>
<b>Romitan</b>	<b>11</b>	<b>7</b>	<b>4</b>
<b>Jondor</b>	<b>14</b>	<b>11</b>	<b>3</b>
<b>Shofirkon</b>	<b>7</b>	<b>5</b>	<b>2</b>

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahrida 166 ta (umumiy miqdordagi ulushi 52,0 %), Kogon tumani 24 ta (7,5 %), Peshku tumani 19 tani (6,0 %), Kogon shahar 15 ta (4,7 %), Buxoro tumani 20 ta (6,3 %), hamda Jondor tumanlarida 14 tani (4,4 %) tashkil etadi.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning  
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**  
(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)

16



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

17




2021-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Buxoro shahri (28,8 %), G'ijduvon (10,7 %), Romitan(8,1 %), Buxoro (7,7 %), Jondor (6,7 %), Peshku (6,0 %), Shofirkon (6,1 %), Kogon (5,3 %), Qorako'l (5,4 %), Vobkent (5,2 %), Kogon shahar (4,2 %), Olot (3,5 %), Qorovulbozor (2,3 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021-yil yanvar- oktabr oylarida, birlikda)


2021-yilning yanvar- oktabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Buxoro shahri (23,1 %), G'ijduvon (10,2 %), Buxoro (8,5 %), Romitan (7,8 %), Peshku (5,2 %), Kogon (5,7 %), Jondor (7,9 %), Vobkent (6,5 %), Shofirkon (7,1 %), Qorako'l (6,2 %), Olot (4,5 %), Qorovulbozor (2,1 %) tumanlari va Kogon shahar (5,2 %),ulushiga tegishli.



# Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

18



2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Buxoro shahri (29,6 %), G'ijduvon (10,5 %), Romitan (8,4 %), Buxoro (7,9 %), Jondor (6,9 %), Peshku (5,8 %), Shofirkon (5,8 %), Kogon (5,4 %), Vobkent (5,2 %), Qorako'l (4,7 %), Kogon shahar (4,4 %), Olot (3,1 %), Qorovulbozor (2,3 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2021-yilning yanvar- oktabr oylarida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot ma'lumotnomasi tusidagi, vaqtiga vaqt bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24- avgustdagisi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodinikiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Buxoro viloyati**  
**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**  
**Tel.: (65) 223-83-20**